

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI TARBIYALANUVCHILARNI
TARBIYALASHDA TA'LIM VA TARBIYANING UYG'UNLIGI

Toshmatova Madina Ixtiyorjon qizi

Farg'ona viloyati farg'ona shaxar 54 DMTT Lagapedi

Annotatsiya: ushbu maqola maktabgacha ta'lism yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'lism va tarbiyaning uyg'unligini o'rganishga bag'ishlangan. Maktabgacha ta'lism davri bolalar hayotida muhim bosqich bo'lib, bu davrda ularning shaxsiyati va emotsiyonal holati shakllanadi. Ta'lism va tarbiyaning integratsiyasi bolalarning bilim, ko'nikma va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, ta'lism tarbiya, tarbiyachilar roli, individual yondashuv, integratsiya, pedagogik uslublar, oila va jamiyat.

Аннотация: данная статья посвящена исследованию гармонии обучения и воспитания в обучении детей дошкольного возраста. Период дошкольного образования – важный этап в жизни детей, в течение которого формируются их личность и эмоциональное состояние. Интеграция образования и воспитания служит развитию у детей знаний, умений и нравственных ценностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитание, роль воспитателей, индивидуальный подход, интеграция, педагогические методы, семья и общество.

Abstract: this article is devoted to the study of the harmony of education and upbringing in the education of preschool children. The period of preschool education is an important stage in the life of children, during which their personality and emotional state are formed. The integration of education and upbringing serves to develop children's knowledge, skills and moral values.

Key words: preschool education, education, role of educators, individual approach, integration, pedagogical methods, family and society.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyati tomonidan rivojlangan davlat sifatida o'rin olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar fidoyi insonlarni tarbiyalab yetishtirishda maktabgacha ta'lism tarbiyalanuvchilarini o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi tarixan Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash sohasida o'ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kundagi Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

maqsad va vazifalarini hal etishda uning o‘rni beqiyosdir. Ta’lim va tarbiya mazmunining uyg‘unligi tamoyili bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo‘lib, bunda egallangan bilim va ko‘nikmalarni hayotga qo‘llay olishga o‘rgatiladi, hayotda ta’lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan uyg‘unlikda rivojlanishi ta’milanadi. Yaxlit ta’lim - tarbiya jarayonida ikkala o‘zaro bog‘liq juftlik, ya’ni bilim berish va tarbiyaviy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta’limiy – tarbiyaviy bilimlar va ko‘nikmalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish, obektiv borliqdagi qonuniyatlarni o‘rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim oluvchilarga bilim berishda egallangan bilimni amalda ishlatishga o‘rgatish bilan birga ta’lim tarbiyalovchi ham bo‘lishi kerak. Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o‘quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog‘liq.

Ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qilishini, o‘quvchilarning uzlucksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o‘z ichiga oladi. Bolalar egallahslari lozim bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy tajribalar kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida, turli xil vaziyatlarda muntazam amalga oshirilib boriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshiga qarab izohlanadi. Jumladan, 3 yoshdagи kichik bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olgan holda ish tutiladi. Bola ulg‘aygan sari uning mustaqilligi, ijtimoiy hayotga moslashuvchanligi oshib boradi. O‘z navbatida ta’lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, vazifalari, vositalari, ijtimoiy agentlar, ijtimoiy muhitlar o‘zgaradi. Bolalarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari ta’lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish asosan faol ish jarayonlarida ro‘y beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonlaridagi - faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi boshlaydi. Faoliyatlar bola hayotidagi bilim, ko‘nikma malakalarning ortib borishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan turli faoliyatlarni maktabgacha yoshdagи bolalar bir vaqtning o‘zida o‘zlashtira olmaydilar. Ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida, uning yordamida sekin-asta egallab boradilar. Bolalar hayotidagi ilk faoliyatlarning eng oddiyлari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, aqliy salohiyati, menligi, tevarak-atrofga ma’lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bolada dastlabki ijtimoiy moslashuvchanlik, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik sekin-asta rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi ham irsiyatga ham taqlidchanlik qobiliyatiga bog‘liq. Bola tabiatida taqlidchanlik borligini hammamiz yaxshi bilamiz. Bola hayotining ilk dastlabki

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yillarida kattalar bilan bo‘ladigan har bir munosabati va narsa-buyumlar ishtirokida bajargan harakatlari asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin ijtimoiy faoliyatga olib kiradilar. Mana shu yo‘llar bilan bola faoliyatning o‘ziga xos tomonlarini egallab boradilar.

Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro‘y beradi, inson tarbiyasi uning kamoloti yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatida, oila instituti, ijtimoiy hayotda, sotsialiqtisodiy vazifalarini hal etishda namoyon bo‘ladi.

Shaxs shakllanishida ta’sir etuvchi omillar mavjud.



1-rasm.Shaxsni shakllantiruvchi omillar

Maktabgacha ta’limming asosiy maqsadi bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish bilan birga, ularning axloqiy va estetik qadriyatlarini shakllantirishdir. Ta’lim jarayonida bolalarga bilim berish bilan birga, tarbiya orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga yordam berish juda muhimdir. Ta’lim jarayonida tarbiya elementlarini integratsiya qilish zarur. Darslarda axloqiy saboqlarni kiritish, bolalarga do‘stlik, hamkorlik va hurmat kabi qadriyatlarni o‘rgatish orqali, ularning shaxsiyati yanada boyitiladi. O‘yin faoliyatları orqali bolalarda jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning ijtimoiylashtirish jarayonini yengillashtiradi. Bolalarning emotsional holatini hisobga olish ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Tarbiyachilar bolalar bilan do‘stlik, hamkorlik va his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etishlari lozim. Bu esa bolalarning o‘zini erkin his qilishlariga yordam beradi va ularda o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Har bir bolaga individual yondashuvni ta’minalash, ularning qobiliyatları va ehtiyojlariga qarab ta’lim va tarbiya jarayonini moslashtirish juda muhimdir. Tarbiyachilar turli metod va texnologiyalardan foydalanib, bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olishlari zarur. Bu yondashuv bolalarning o‘z-o‘zini anglashiga va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida yaqin hamkorlikni o‘rnatish muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lish, ularga bolalarining ta’lim va tarbiyasiga oid tavsiyalar berish, ularni jarayonga jalb etish tarbiyalanuvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yordam beradi. Oila tarbiyasi bilan maktabgacha ta'lim jarayonining uyg'unligi bolalar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilarning professional malakasi ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlashda muhimdir. Tarbiyachilar doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishlari lozim. Ular bolalar bilan ishslashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashlari, shuningdek, bolalarning ehtiyojlariga javob beradigan innovatsion metodlarni ishlab chiqishlari zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi bolalarning to'g'ri rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu jarayonda tarbiyachilar, ota-onalar va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va tarbiyaning birgalikdagi yondashuvi bolalarda bilim, ko'nikma va axloqiy qadriyatlarni shakllantirib, ularni keljakda muvaffaqiyatli shaxslar bo'lishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim va tarbiya uyg'unligi. Masharipova Go'zal Qabulovna
2. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishida ijtimoiy muhitning ahamiyati .Gulandom Ikromovna Murodova
3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi ta'minlash To'lanova Feruzaxon Turgunboy qizi

